



## KREATIV SANOATNING TASHKILIY VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

### EFFECTIVE DEVELOPMENT AND UTILIZATION OF ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS IN THE CREATIVE INDUSTRY

**<sup>1</sup>Ikramova Kamola  
Shaxitovna**

*<sup>1</sup>PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

#### Annotatsiya Annotation

**Uzb.** - Maqolada kreativ sanoatda tashkiliy va iqtisodiy modellarni samarali shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlari o'rganilgan. Maqolada solishtirma metodologiyadan foydalanilgan va miqdoriy manbalarga, jumladan, keys-tadqiqotlar, ekspertlar bilan intervyular va milliy sanoat hisobotlariga tayanilgan.

**Eng.** - This article explores the effective formation and application of organizational and economic models within the creative industries. A comparative methodology is employed, drawing on quantitative sources such as case studies, expert interviews, and national industry reports.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *kreativ sanoat, tashkiliy mexanizmlar, iqtisodiy modellar, innovatsion boshqaruv, kreativ iqtisodiyot.*  
❖ *creative industry, organizational mechanisms, economic models, innovative management, creative economy.*

#### Kirish.

Global miqyosda kreativ iqtisodiyot tobora kengayib borayotgan bir sharoitda, bu sohani samarali rivojlantirish uchun tuzilmaviy, masshtablanadigan va moslashuvchan mexanizmlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bilimga asoslangan va tajribaga yo'naltirilgan iqtisodiyotga global o'tish jarayonida kreativ sanoat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Kino, musiqa, reklama, raqamli san'at kabi sohalar nafaqat madaniy boylikni shakllantiradi, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkonini beradi.

Biroq, hozirgi kunga kelib ushbu sohada samarali tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning shakllanishi yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan, mavjud yondashuvlar esa izchil qo'llanilmaydi. Ushbu maqolada ilgari surilgan asosiy faraz shundan iboratki,

an'anaviy iqtisodiy modellarni zamonaviy tashkiliy strukturalar bilan uyg'unlashtirgan gibrid va moslashuvchan yondashuvlar kreativ sanoatning samaradorligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ sanoatda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsiyaga asoslangan, moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar texnologik taraqqiyot, raqamli infratuzilma va ijtimoiy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq holda, kreativ subyektlar faoliyatining iqtisodiy qiymatini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, kreativ iqtisodiyot uchun gibrid modellar asosida yaratilgan, turli sohalarni o'zaro bog'lovchi hamda bozor talablariga tez moslasha oladigan boshqaruv tizimlari va moliyalashtirish usullari asosiy strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Mazkur maqolada ushbu yondashuvning

nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va ularni tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilinadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Kreativ sanoatning iqtisodiy mohiyatini tushunishda bir qator mualliflarning nazariy yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. R.Caves ijodiy ishlarning yuqori darajadagi noaniqligi va loyiha asosida tashkil etilishi ushbu sohada an'anaviy bo'lmagan, moslashuvchan boshqaruv yondashuvlarini joriy etish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kreativ sektorda ishlab chiqarish jarayoni ko'p hollarda yakka loyihalarga asoslanadi, bu esa risklarni boshqarish va resurslarni taqsimlashda o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi [1].

R.Florida tomonidan ilgari surilgan "ijodiy sinf" konsepsiyasi esa iqtisodiy o'sish jarayonini inson kapitali bilan bevosita bog'laydi. Unga ko'ra, iqtisodiy raqobat ustunligi faqat moliyaviy yoki ishlab chiqarish resurslariga emas, balki kreativlik, bilim va innovatsiyaga tayangan inson salohiyatiga bog'liq [2]. Bu yondashuv kreativ sanoatni zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rishga imkon beradi.

D.Hesmondhalgh esa madaniy sanoatning tuzilmasi va ushbu sohada bandlikning beqarorligini tahlil qilib, kreativ mehnat bozori uchun ijtimoiy himoya, barqaror mehnat sharoitlari va moslashtirilgan siyosiy yondashuvlar zarurligini ta'kidlaydi [3]. Bu iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan qaranganda, sohada ishlab chiqarish omillari barqarorligi va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining dolzarbligini ko'rsatadi.

S.Islomov O'zbekiston sharoitida davlat tomonidan madaniy korxonalarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash zaruratini qayd etadi, biroq mavjud siyosiy chora-tadbirlarning amaliy mexanizmlari va barqaror moliyalashtirish manbalari yetarli emasligini ta'kidlaydi [4]. Bu esa davlat ishtirokidagi

institutlar va regulativ tizimning kuchaytirilishini talab qiladi.

J.Potts va S.Cunningham kreativ sanoatni murakkab, ko'p darajali innovatsion tizim sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, bu tizimda qiymat birgalikda yaratiladi va uni an'anaviy iqtisodiy modellar orqali baholash murakkab hisoblanadi. Bu esa yangi, tizimli va ko'p funksiyali tahliliy usullarga ehtiyoj mavjudligidan dalolat beradi [5].

Shuningdek, Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan "Creative Industries Mapping Document" xalqaro miqyosda sohaga oid siyosat va tasnifni shakllantirishda muhim asos bo'lgan. Biroq ushbu modelda postsovet iqtisodiyotlarining xususiyatlari inobatga olinmagani sababli, ularni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash O'zbekiston kabi transformatsion iqtisodiyotlar uchun cheklovli bo'lishi mumkin [6].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tadqiqot davomida O'zbekistonda kreativ sanoatni samarali rivojlantirish uchun beshta asosiy komponent aniqlangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Markazlashmagan tashkiliy tuzilmalar.

Kreativ sanoatda faoliyat yurituvchi korxonalar markazlashmagan iyerarxiyalarda samaraliroq faoliyat yuritadi. O'zbekistonda dizayn va reklama yo'nalishidagi startaplar aynan shunday boshqaruv modeli asosida yuqori innovatsion natijalarga erishmoqda. Masalan, O'zbekiston Davlat San'at Muzeyi kuratorlik bo'limini tashkil etib, har bir kuratorga loyiha yuritish, hamkorliklarni yo'lga qo'yish va budjetni boshqarish bo'yicha mustaqillik bergan. Bu yondashuv muzey faoliyatining samaradorligini oshirib,

auditoriyani jalb qilish darajasini oshirdi. Xuddi shunday model Buyuk Britaniyadagi Tate Modern muzeyida ham qo'llanilmoqda.

2. Moslashuvchan moliyaviy modellar.

An'anaviy bank kreditlari ko'pincha kreativ sohalarda talablariga mos kelmaydi. Shu bois, gibril moliyalashtirish modellari (kraudfanding, davlat grantlari va venchur capital) ushbu sohalarda ko'proq samara beradi. Masalan, Toshkent kinofestivali aynan davlat subsidiyalari va xususiy homiylik vositasida qayta tiklandi [7].

3. Intellektual mulk infratuzilmasi.

Mualliflik huquqlarini himoya qilish tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi kreativ sanoatning barqaror rivojlanishiga sezilarli to'siq bo'lib qolmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, intellektual mulk huquqlarining kuchli himoyasi madaniy va ijodiy mahsulotlar eksportini rag'batlantiruvchi muhim omillardan biridir. Xususan, Janubiy Koreyada intellektual mulk sohasidagi qonunchilik va uning ijrosi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu holat mazkur mamlakatning madaniy mahsulotlari global

bozorga muvaffaqiyatli chiqishida hal qiluvchi omil bo'lmoqda. O'zbekiston misolida esa, mualliflik huquqlarini himoya qilish borasidagi normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich takomillashmoqda.

4. Siyosiy va institutsional qo'llab-quvvatlash.

Aniq strategik yondashuvga ega mamlakatlarda kreativ sanoat yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada Creative Industry Council hukumatga bevosita maslahat beruvchi muhim organ sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekistonda esa Madaniyat vazirligi tarkibida kreativ iqtisodiyot bo'limi tashkil etilishi ijobiy tashabbus bo'lib, bu sohani institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

5. Kadrlar tayyorlash va ta'lim.

Kreativ sanoatning barqaror o'sishi san'at, texnologiya va tadbirkorlikni uyg'unlashtirgan tizimli ta'lim orqali ta'minlanadi. Yevropadagi Art & Tech akseleratorlari bu borada muvaffaqiyatli mintaqaviy modellar sifatida O'zbekiston uchun ham namunaviy tajriba bo'lishi mumkin.

**1-jadval**

**Kreativ sanoat mexanizmlarining solishtirma tahlili**

| Yo'nalish                                           | O'zbekiston              | Buyuk Britaniya                     | Janubiy Koreya           |
|-----------------------------------------------------|--------------------------|-------------------------------------|--------------------------|
| <b>Tashkiliy tuzilma</b>                            | Startaplar rivojlanmoqda | Rivojlangan                         | Davlat-xususiy gibril    |
| <b>Moliyalashtirish</b>                             | Davlat grantlari         | Gibril (venchur kapitali, grantlar) | Kredit, venchur kapitali |
| <b>Intellektual mulkni tartibga solish</b>          | Rivojlanmoqda            | Rivojlangan                         | Rivojlangan              |
| <b>Tamoyillar va qoidalarining tizimli majmuasi</b> | Shakllanmoqda            | Institutsional                      | Kuchli integratsiya      |
| <b>Ta'lim va salohiyatni oshirish</b>               | Past darajada            | Yuqori                              | Juda yuqori              |

O'zbekistonda kreativ sanoat startaplari faol rivojlanayotgan bo'lsa-da, ushbu sohada mustaqil tashkilotlar hali keng miqyosda shakllanmagan. Buyuk Britaniyada bu soha ancha rivojlangan va mustahkam infratuzilmaga ega. Janubiy Koreyada esa

davlat va xususiy sektor o'rtasidagi gibril hamkorlik modeli samarali ishlamoqda.

O'zbekistonda kreativ sanoatni moliyalashtirish asosan davlat grantlari orqali amalga oshirilmoqda. Bu dastlabki bosqich uchun muhim bo'lsa-da, uzoq muddatli va

innovatsion rivojlanish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Xususan, Buyuk Britaniyada moliyalashtirish manbalari xilma-xil bo'lib, venchur kapitali, grantlar va boshqa investitsiyalar birgalikda qo'llaniladi. Janubiy Koreyada esa bu tizim kreditlar va xususiy kapital hisobiga yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda kreativ sohalar bo'yicha maxsus ta'lim tizimi va kadrlar salohiyati hozircha past darajada. Buyuk Britaniya bu borada ilg'or o'quv dasturlari va akseleratorlarga ega. Janubiy Koreyada esa san'at, texnologiya va tadbirkorlikni uyg'unlashtirgan yuqori darajadagi ta'lim modeli mavjud.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston kreativ sanoat yo'nalishida muayyan ijobiy siljishlarga ega bo'lsa-da, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya bilan solishtirganda hali ko'plab tizimli islohotlarga ehtiyoj mavjud. Xususan, moliyaviy xilma-xillik, intellektual mulk huquqlari himoyasi, ta'lim sifati va institutsional asoslarni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biridir.

### **Xulosa va takliflar.**

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy va tashkiliy strategiyalarning uyg'unligi kreativ sanoatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. An'anaviy yuqoridan pastga yo'naltirilgan iqtisodiy rejalashtirish modeli ijodiy sektorning moslashuvchan va innovatsion xususiyatlariga mos kelmaydi. O'zbekiston bugungi kunda yangi bosqichga qadam qo'ygan bo'lib, kreativ sohalar rivojida sifat jihatdan o'zgarishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida yana ta'kidlash joizki, madaniy korxonalarda markazlashmagan boshqaruv modellarini joriy etish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, intellektual mulk huquqlarini mustahkamlash, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat kengashlari va bo'limlar orqali siyosiy qarorlarni institutsional asosda shakllantirish, shuningdek, ijodiy tadbirkorlikka yo'naltirilgan ko'p fanli ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Caves, R. (2000). *Creative Industries: Contracts Between Art and Commerce*. Harvard University Press.
2. Florida, R. (2002). *The Rise of the Creative Class*. Basic Books.
3. Hesmondhalgh, D. (2013). *The Cultural Industries*. SAGE Publications.
4. Islomov, S. (2021). "Creative Industry in Uzbekistan: Challenges and Prospects." *Uzbek Journal of Cultural Economics*, 5(2), 33-47.
5. Potts, J., & Cunningham, S. (2008). "Four Models of the Creative Industries." *International Journal of Cultural Policy*, 14(3), 233-247.
6. Department for Culture, Media and Sport (DCMS). (1998). *Creative Industries Mapping Document*.
7. Tashkent Film Commission. (2024). *Annual Report on Creative Financing Models*.